

AJRATILGAN MABLAG'LARDAN O'RINLI FOYDALANILYAPTIMI?

Muhokama chog'ida sohada qator muammolar mavjudligi ham aytiladi. Xususan, 2025-yilda ro'yxatdan o'tgan 3 533 nafar yakka tartibdagi tadbirkor yoshning 1 536 tasi o'z faoliyatini shu yilning o'zida to'xtatgan. Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi 164 ta investitsiya loyihasidan atigi 12 tasi ishga tushirilgan, 110 tasida esa ishlar boshlanmagan. Natijada rejalashtirilgan 1 037 ta ish o'rtidan bor-yo'g'i 37 tasi yaratilgan bo'lib, ularning juda kam qismi yigir-qizlar hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, viloyatdagi barcha sanoat zonalarida yo'l infratuzilmasini yaxshilash, ichimlik suvi bilan ta'minlash ishlari haligacha yakunlanmagan a'chinarlidir.

Tijorat banklari viloyatdagi 129 ta loyiha uchun Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasiga buyurtmanoma bergan, biroq shundan atigi 40 ta loyiha gacha mablag' ajratilgan.

Kasbiy ko'nikmalar markazida "vaucher" asosida o'qitilgan 2 124 kishidan 1412 nafari, Xotin-qizlar tadbirkorlik markazida o'qitilgan 7 200 nafardan 4244 nafari, Savdo-sanoat palatasida tomonidan o'qitilgan 523 nafardan 309 nafarining bandligi ta'minlanmagan.

Majlis yakunida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilinib, unda o'rganish davomida aniqlangan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish yuzasidan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar zimmasiga vazifalar yuklatildi.

"Xalq so'zi".

IQTISODIY YUKSALISH VA BARQARORLIK OMILI

Mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy faolligini oshirishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ayollar tadbirkorligining rivojlanishida davlat tomonidan yaratilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ham muhim ahamiyatga ega. O'tgan yilda "Hamroh" dasturi doirasida xotin-qizlarning 3 mingta loyihasiga jami 1 trln. so'm ajratilgan bo'lsa, joriy yilda 1,5 mln. nafar ayolni daromadli qilib, shundan 400 ming nafarini biznesga jalb etish bo'yicha 25 trln. so'mdan ziyod resurs yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

Mulohaza

Prezidentimiz farmoniga muvofiq, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 100 mln. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratildi. Amalg oshirilayotgan islohotlar natijasida ayollarning tadbirkorlikni boshlash va rivojlantirishi uchun qulay iqtisodiy hamda institutsional muhit shakllanmoqda.

Yurtimizda xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi ishtiroki sezilarli darajada oshganini tadbirkorlarning 40 foizini ayollar tashkil etayotganidan ham bilsa bo'ladi. Ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi opa-singillarimiz qayta ishlash va qishloq xo'jaligi

sohalarida faol qatnashayotgan bo'lsa, shaharlarda tikuvchilik, qandolatchilik, kosmetologiya, ta'lim xizmatlari, sog'liqni saqlash hamda maishiy xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda faollik ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda ishbiarmon ayollar doirasi ikki barobar kengayib, ularning soni 200 ming nafardan oshdi. Shuningdek, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlaridagi ulushi 46 foizga yetdi. 120 mingdan ortiq kichik biznes subyektlari hamda 4550 dan ziyod fermer xo'jaliklari ayollar rahbarligida faoliyat yuritmoqda. Bu esa ular ishbiarmonligi, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil yanvar oyida mamlakatimizda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 80,5 trln. so'mni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichda ayollar tadbirkorligi hisssasi salmoqli o'rin tutadi. Bu esa xotin-qizlar nafaqat an'anaviy xizmat ko'rsatish sohalarida, balki iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlarida ham faol ishtirok etayotganining namoyonidir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ayollar tadbirkorligi iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro tahlillarga ko'ra, dunyoda yangi biznes subyektlarining qariyb 30 foizdan ko'pi ayollar tomonidan yo'lga qo'yilmoqda va samarali boshqarilmoqda.

O'z navbatida, ayollar tadbirkorligining rivojlanishi innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda tadbirkorlik yo'nalishida gender chegaralar deyarli yo'qoldi. Negaki, ilgari ayollar, asosan, pedagogika yoki xizmat ko'rsatish tarmoqlarida faoliyat yuritgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ular qurilish, molli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsiya va raqamli iqtisodiyot kabi

sohalarda ham muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda.

Raqamli texnologiyalar, internet platformalari va elektron xizmatlar tadbirkorlik faoliyatining makon va vaqt chegaralarini qisqartirib, yangi biznes modellari shakllantirishi xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ayollar onlayn ta'lim, elektron savdo, xizmat ko'rsatish platformalari, kontent ishlab chiqarish va boshqa ko'plab yo'nalishlarda o'z biznesini yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ish o'rinlari yaratish va aholi bandligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Xotin-qizlar nafaqat oila va jamiyat tayanchi, balki iqtisodiy taraqqiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida ham namoyon bo'lar ekan, quyi bo'g'in - mahallalarda xotin-qizlar tadbirkorligini yanada rivojlantirish uchun qator yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Jumladan,



mahalla darajasida tadbirkorlikka o'qitish markazlarini kengaytirish, ayollarga biznes reja tuzish, marketing va moliyaviy savdoxonlik bo'yicha amaliy ko'nikmalar berish hamda mahallabiznes loyihalari moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, kichik va o'rtacha tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imtiyozli kredit hamda grantlar ajratish muhim. Ayollarni elektron savdo, onlayn xizmatlar va raqamli platformalar orqali biznes yuritishga o'qitish hamda ijtimoiy tadbirkorlikni rag'batlantirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va mahalla infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyatga ega.

Bu kabi o'zgarishlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mahallalarda xotin-qizlar tadbirkorligi yanada ravnaq topishiga xizmat qilib, yurtimizda iqtisodiy barqarorlik hamda aholi farovonligini ta'minlashga hissa qo'shadi.

Jamila BOBANAZAROVA, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi.

INSON HAYOTI VA SALOMATLIGINING KAFOLATI

Sog'lom aholi - sog'lom jamiyat asosi. Tibbiyot insonlarni mehnatga layoqatli holda saqlab, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga katta hissa qo'shadi. U nafaqat kasalliklarni davolaydi, balki ularning oldini olish, inson umrini uzaytirish va hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Insonning umumiy jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash ham tibbiyotning muhim vazifalari sirasidadir.



Shu haqda Oliy Majlis Senati a'zosi Zumrad Bekatova o'z mulohazalarini bildirdi.

"Yashil makon": KELAJAKNI KO'ZLAGAN EZGU TASHABBUS

Shu bahonda qir bag'rida olis Amerikadan keltirilgan ko'chatlar ekilib, tomchilatib sug'orishga asoslangan ulkan yong'oqzor barpo etildi. O'zbekning mehri, g'ayratu shijoati bilan bu nihollar bugun hosilga kirgan. Bundan quvonmay bo'ladimi?!

Sug'oriladigan yerdami, lalmikor joylardami, eng muhim masala, bu - hosildorlik. Daromadning cho'g'i ham shunga bog'liq. Davlatimiz rahbari bu muhim masalaga Prezident sifatida ish boshlagan chog'lardayoq jiddiy e'tibor qaratdi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 4-martdagi "Dehqon xo'jaliklari va aholining tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, suvsiylikka chidamli, eksportbop daraxt plantatsiyalarini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, viloyatning qator tumanlari, jumladan, Qo'shrabotda ham tog'oldi hududlarida fermer xo'jaliklari tashkil etilib, 5,7 ming gektar yong'oqzor va 13 ming gektar tokzorlar barpo qilishga kirishildi.

Bu bejiz emas. Masalan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda yong'oqzorlar umumiy maydoni taxminan 1 million gektardan oshadi. Ulardan olinayotgan hosil ta'mi, ko'rinishi, po'chog'ining yuqqa va qalinligiga qarab belgilanadi. Xususan, Yaponiya va Janubiy Koreyada bir kilo yong'oq 20 AQSH dollari turadi. Chunki bu davlatlarda yong'oqzorlarning o'zi yo'q. Birlashgan Arab Amirliklari va Saudiya Arabistonida ham shunday. Yong'oq yetishtirish bo'yicha dunyoda Xitoy (1,4 mln. tonna) peshqadam.

AQSH esa bu borada jahon bozorida eksportning yarmini amalga oshiradi. Ekologik toza mahsulotlarga talab oshgan sayin xalqaro bozorda yong'oqning xaridorlari ham kundankunga ko'paymoqda. Bu, albatta, yong'oq yog'ining farmatsevtika va kosmetologiyada juda qadrlil ekanini bilan ham bog'liq. Shu bois bog'rog'lar yaratish, avvalo, kelajakni ko'zlagan ezgu tashabbusdir.

Prezidentimiz Qo'shrabotda qir bag'riga nihol qadab boshlab bergan ko'kalamlashtirish harakati bugun izchil davom ettirilmoqda. Har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasida tuman qishloq xo'jaligi bo'limi hamda ekologiya va iqlim o'zgarishi idorasi rahbarining "Yashil makon" umummilliy loyihasi bo'yicha hisobotlarini eshitaymiz. Qancha daraxt ekildi, qanchasi ko'kardi, qanchasi qurib qoldi, barcha muammoni ochiq-oydin muhokama qilaymiz. Shu yil ko'klamning o'zida tumanimiz bo'yicha 350 ming tupdan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.

Deputatlarimiz orasida bu borada shaxsiy ibrat ko'rsatganlar ham bor. Masalan, "Qochqosoy" saylov okrugining saylangan deputatimiz Abdurahim Mardiyevning o'zi ikki ming tupdan ortiq daraxt nihollarni tayyorlab bog'bonlarga yetkazib berdi. Shuningdek, u 700 gektarlik lalmikor yerlarni bog'ug'aylantirishga jiddiy kirishgan. Yana bir deputatimiz - "Sardor" fermer xo'jaligi raisi Bahodir Abashov 200 gektarlik bog' yaratish tashabbusi bilan chiqdi.

Biz tumanidagi 34 ta mahallada o'tkazilayotgan ochiq mulozotlarimizda fermerlar va aholini daraxtzorlari, xususan, mevali bog'larni ko'paytirishga da'vat etaymiz. Chunki otta-bobolarni ekan daraxt mevasidan bugun biz nafalanmaymiz, ammo kelajagimiz - farzandlarimiz, nabiralarmiz-chi, ular uchun bog' qoldira olamizmi?!

Qolaversa, nihol ekish, ezguliklarga boshqosh bo'lish borasida davlatimiz rahbarining o'zi ibrat bo'lmoqda. Dunyodagi qaltis vaziyat, oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti bilan bog'liq muammolar ham e'tiborimizni bog'dorchilikni yanada rivojlantirishga undaydi. Umid qilamizki, Qo'shrabot bu borada nomdur bo'ladi. Bugungi sa'y-harakatlarimiz xuddi shu maqsad ro'yobiga yo'naltirilgan.

Azizjon QOBILOV, xalq deputatlari Qo'shrabot tumani Kengashi raisi.

EKOLOGIK SIYOSATDA TUB BURILISH

Dunyo miqyosida ekologik muammolar keskin tus olayotgan bir paytda davlatimiz rahbari ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 2026 - 2030-yillarga mo'ljallangan ustuvor umummilliy loyihalar yuzasidan taqdimot bilan tanishishi yurtimizning uzoq muddatli barqaror rivojlanish yo'lidagi qat'iy pozitsiyasini yana bir bor namoyon etdi.

Aks sado

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami ishlar, chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar mazkur yo'nalishda katta qadam bo'ldi. Ammo ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, kelajak avlodlarga toza va sog'lom muhit qoldirish uchun tizimli hamda uzoq muddatli strategik yondashuv zarur.

Tayinlashda havo tozaligini ta'minlash, suv resurslarini oqilona boshqarish, chiqindilarni qayta ishlash va utilitatsiya qilish, yer degradatsiyasiga qarshi kurashish, ekologik madaniyatni oshirish kabi fundamental o'zgarishlarni nazarda tutuvchi 2026 - 2030-yillarga mo'ljallangan ustuvor loyihalarning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi.

Unga ko'ra, havo tozaligini ta'minlash maqsadida sanoat korxonalarini va transport vositalaridan chiqayotgan zararli gazlar miqdorini

ta'tbiq etishda nafaqat davlat organlari, balki xususiy sektor, jamoat tashkilotlari va har bir fuqaroning faol ishtiroki muhim, albatta.

Bundan tashqari, "Ekomadaniyat" umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta'lim, ilm-fan va targ'ibotni bir-biriga bog'lagan holda yangi tizim yaratish rejalashtirilgan. Mazkur sohada esa xalqaro standartlarga mos mutaxassislar yetishmayapti. Qolaversa, aholi o'rtasida ekologik ong va barqaror odatlar hali yetarli darajada shakllanmagan, innovatsiya hamda iqlim texnologiyalarini amaliyotga joriy qila oladigan kadrlar ham kerak.

Bu borada 2026/2027 o'quv yilidan boshlab 14 ta hududda "yashil texnikumlar" tashkil etilib, ular "Green University" tizimiga akademik hamkorlik asosida birlashtirilishi ayni muddao bo'ldi.

Atrof-muhitni asrash faqat davlatning vazifasi emas, bu har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Agar biz tabiatni sevib, uni himoya qilishda faollashsak, mamlakatimizni yashash uchun yanada qulay hamda ekologik xavfsiz yurtga aylantira olamiz. Taqdimot qilingan loyihalar ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholi salomatligini muhofaza etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Odiljon MAMADALIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Bizning intervyu

Prezidentimizning Oliy Majlisi va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ham tibbiyot sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar borasida fikrlar bildirilgan edi. Xususan, unda sog'liqni saqlash xodimlari bilan 2025-yil davomida ikki marta uchrashib, ularda ko'rib chiqilgan barcha masalalar bo'yicha farmon va qarorlar qabul qilinganiga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas. Sababi ushbu uchrashuvlarda sohada olib borilayotgan ishlar, ularning ijobiy natijalariga to'xtalib, o'z yechimini kutayotgan barcha masalalar tahlil qilindi hamda yangi vazifa va imkoniyatlar belgilab olindi.

Uchrashuvlarda hozirgi global iqtisodiyotda raqobatga chidamli bo'lish uchun malakali kasb egalari va mutaxassislar, zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlandi. Kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 mlrd. dollardan oshirishga xizmat qiluvchi omillar qatorida ta'lim va tibbiyotda sifati yangi bosqichga olib chiqadigan ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etish uchun yangi texnologiyalarni olib kirish, kadrlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga tayyorlash masalalariga ham to'xtab o'tildi.

Har bitta yo'nalishda bo'lgani kabi tibbiyot sohasida ham malakali kadrlarning ahamiyati juda muhim. O'tgan yili belgilab olingan islohotlar doirasida soha uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalari ko'zda tutilgan edi. Shu maqsadda mavjud uchta oliy o'quv yurti negizida Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etildi. Urganch davlat tibbiyot instituti faoliyati yo'lga qo'yildi. Samarqand davlat tibbiyot universiteti nufuzli xalqaro "Times Higher Education" (THE) reytingidan joy oldi. Bugungi kunda xalqaro akkreditasiyadan o'tgan tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining soni 8 tani tashkil etmoqda.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti qoshida Oliy kasbiy tibbiyot akademiyasi tashkil qilinishi hamshiralarni tayyorlash tizimini takomillashtirib, oliy ma'lumotga ega, shifokor bilan yonma-yon turadigan, haqiqiy ma'noda shifokorga ko'makchi bo'ladigan hamshiralarni tayyorlashga zamin yaratmoqda. Chunki bugungi kunda aynan tibbiyot yo'nalishida malakali shifokor va hamshiralarga talab katta. Agar masalaga har o'n ming aholiga qancha shifokor to'g'ri kelishi nuqtaiy nazaridan yondashadigan bo'lsa, mamlakatimizda bu ko'rsatkich AQSH, Buyuk Britaniya, Finlyandiya bilan bir xil, ya'ni har 10 ming aholiga 27 nafar shifokor to'g'ri keladi. Turkiya va Kanadada esa bu raqamlar 1,5 baravar kam.

Hamroqul QARSHIYEV ("Xalq so'zi") yozib oldi.

VAZIRLIK AXBOROTI ESHITILDI

Munozaralarda deputatlar tomonidan sohada tadbirkorlarga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari holati yuzasidan mas'ullar oldiga tegishli savollar qo'yildi. Davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha kelib tushgan arizalar tahlil qilinib, vazirlik tomonidan rad etilgan arizalarning sabablari muhokama qilindi va tegishli tavsiyalar berildi.

Shu bilan birga, xalq vakillari davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini oshirish, raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish yuzasidan o'z takliflarini bildirdi. Yakunda kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

ISLOMIY BANK XIZMATLARI BOSQICHMA-BOSQICH JORIY ETILADI

Bundan tashqari, islomiy moliya operatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, Soliq kodeksiga islomiy moliya operatsiyalarini soliqqa tortish tartibini belgilovchi alohida bob kiritildi. Unga asosan islomiy moliya faoliyatidan olingan daromadlar soliq solish maqsadlarida foizli daromadlarga tenglashtirilib, banklar va mikro moliya tashkilotlari tomonidan mijozga realizatsiya qilinadigan tovarlarga qo'yiladigan ustama QQSdan ozod qilinadi.



Ushbu o'rinda savol tug'iladi. Xo'sh, islomiy moliya xizmatlarining afzalliklari nimada? Mutaxassislar so'nggi yillarda ushbu tizimning o'sishi, ommalashuvi va geografik kengayishini uning an'anaviy banklarga qaraganda bir necha ustunliklarga egaligi bilan izohlaydi. Jumladan, moliyaviy adolat islom ta'limotining bosh tamoyili hisoblanadi. Bu tizim foyda va zarar taqsimotida muvozanatni saqlashga asoslanadi. Islomiy bank loyihalarda tadbirkor bilan teng huquqli sherik sifatida ishtirok etadi. Daromad ham, zarar ham tomonlar kelishuvi asosida adolatlilik taqsimlanadi.

An'anaviy banklar esa pulni daromadli kafolatlangan sotish yoki ijaraga berish mumkin bo'lgan mahsulot sifatida ko'radi. Berilgan qarzni yo'qotilish xavfi juda kam. Ya'ni qarz mablag'larini ham, qarz bo'yicha foizlar ham loyihaning muvaffaqiyati yoki inqirozdan qat'iy nazar, doimo kafolatlangan bo'ladi. Sodda qilib aytganda, an'anaviy banklar foyda orqali idora etilsa, islomiy banklar ruxsat va taqiq mezonlari orqali boshqariladi.

Islom moliyasi tarixi haqida gap ketganda, bu tizim 1967-yilda ilk bor Misrda paydo bo'lgani ta'kidlanadi. Keyinchalik Malayziya, Birlashgan Arab Amirliklarida shakllandi. 1980-yillarda kelib islomiy moliya xizmatlari xalqaro darajada ham rivojlana boshladi. Birgina Buyuk Britaniyada 20 dan ortiq banklar islomiy moliya xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Islom moliyasi eng yaxshi yo'lga qo'yilgan uchta davlat - Saudiya Arabistoni, Eron, Malayziya ko'rsatkichlar ko'lami bo'yicha global bozor hajmining 66 foiziga egalik qiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan qonun mamlakatimizda islomiy bank xizmatlarini bosqichma-bosqich joriy etishga, "yashirin iqtisodiyot" ulushini kamaytirishga va islomiy bank faoliyatini rivojlantirish uchun yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalarni jalb etishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Abdulahim ESHBOYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

KIBERXAVFSIZLIK – MAMLAKAT RAVNAQINING MUHIM OMILI

Bugungi kunda insoniyat taraqqiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borayotganidir. Internet tarmoq'ining kengayishi, elektron davlat xizmatlarining joriy etilishi, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi zamonaviy taraqqiyotning asosiy drayverlariga aylantirildi.


Munosabat

Shu bilan birga, raqamli muhitda yangi xavf-xatarlar ham paydo bo'lmoqda. Kiberhujumlar, onlayn firibgarlik, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy tarqatish, axborot tizimlariga noqonuniy kirish holatlari dunyo miqyosida tobora ko'payib borayotgani bu masalaga jiddiy va tizimli yondashuvni talab etyapti.

Shu nuqtaiy nazardan, mamlakatimizda kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoatchilikka qarshi kurashish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni sohada davlat siyosatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqqan muhim huquqiy hujjat bo'ldi.

Mazkur hujjatning asosiy maqsadi

mamlakat kibermakonida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ishonchli himoya qilish, axborot infratuzilmalarining barqaror faoliyatini ta'minlash, raqamli iqtisodiyot tarmoqlarida xavfsizlikni mustahkamlash hamda kiberjinoatchilikka qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirishdan iborat.



Davlat boshqaruvi tizimi, bank-moliya sohasi, energetika tarmoqi, transport infratuzilmasi, ta'lim va tibbiyot muassasalari raqamli texnologiyalarga tayanayotganini hisobga olsak, ushbu sohalarida axborot xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri ekanini yaqqol namoyon bo'ladi.

Farmonda milliy kiberxavfsizlik siyosati doirasida qator strategik vazifalar aniq belgilab berilgan. Xususan, milliy kiberbarqarorlikni mustahkamlash, muhim axborot infratuzilmasini ishonchli himoya qilish, kibertahdidlarga qarshi samarali tizim yaratish, davlat organlari va xususiy sektorning raqamli xavfsizligini ta'minlash hamda kiberjinoatchilikka qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirish kabi masalalar ustuvor vazifalar sifatida o'rin olgan.

Bu esa kiberxavfsizlikni faqat texnik yoki sohaviy masala sifatida emas, balki milliy xavfsizlik, iqtisodiy taraqqiyot va jamiyat barqarorligi bilan uzviy bog'liq strategik yo'nalish sifatida ko'rish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Farmonda kibertahdidlarga qarshi tekzor va samarali javob berish mexanizmlarini shakllantirishga ham e'tibor qaratilgan. Buning doirasida kiberxavflarni monitoring qilish, tahlil etish va ularga qarshi tekzor choralar ko'rish imkonini beruvchi zamonaviy markazlar hamda axborot almashinuv tizimlarini shakllantirish ko'zda tutulgan.

O'z navbatida, kiberxavfsizlik sohasida sun'iy intellekt va innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ham muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu kibertahdidlarni barvaqt aniqlash, ularni prognoz qilish

va xavflarni oldindan bartaraf etish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bunday kompleks yondashuv mamlakat raqamli infratuzilmasining barqarorligi va ishonchligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayd etish joizki, keyingi yillarda internet orqali sodir etilayotgan firibgarlik, bank kartalari ma'lumotlarini o'g'irlash, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy tarqatish kabi jinoyatlar soni ortib borayotgani mazkur sohada tizimli choralar ko'rishni talab etmoqda.

Farmon doirasida kiberjinoatchilikka qarshi kurashishning institutsional va huquqiy asoslari yanada mustahkamlanadi. Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik imkoniyatlarini kengaytiriladi, kiberjinoatchilarni tergov qilishning zamonaviy usullari joriy etilib, internet makonida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha profilaktik ishlar kuchaytiriladi.

Bu esa raqamli muhitda fuqarolarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoyalash, internet makonida qonuniylik va tartibni ta'minlashga xizmat qiladi.

Jumanazar OTAJONOV,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi deputati.

YANGI O'ZBEKISTON – TURIZM CHORRAHASI

Haftaning har payshanba kuni vazirlik, idora va hokimliklarda "Yoshlar kuni" etib belgilandi. Shu bois mazkur kunda yoshlar bilan yaqindan ishlash, ularning orzu-maqсадlarini ro'yobga chiqarish, muammolarini eshitish hamda yechim topish, iqtidorlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan turli tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Poytaxtimizda Toshkent shahar hokimligi, Toshkentdagi Turin politexnika universiteti, "El-yurt umidi" jamg'armasi va boshqa qator tashkilotlar hamkorligida talaba-yoshlar uchun ochiq muloqot hamda targ'ibot tadbiri bo'lib o'tdi. Unda 870 nafardan ziyod yigit-qizlar qatnashdi.

Uchrashuv davomida ishtirokchilarga "El-yurt umidi" stipendiyasining yo'nalishlari, ochiq tanlovlarda qatnashish tartibi, nomzodlarga qo'yiladigan



maktab o'quvchilari qatnashib, madaniy-ma'rifiy tadbirlar hamda sport musobaqalari orqali maroqli horchiq chiqardi.

Shu kuni yosh tadbirkorlar, hunarmandlar va rassomlar

samimiy hamkorlik yo'lga qo'yilib, birgalikda ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, innovatsiyalardan unumli foydalanishga xizmat qiladi.

Namangan viloyatida ham Yoshlar kuni munosabati bilan turli tadbirlar o'tkazildi.

Jumladan, Namangan davlat texnika universiteti tashabbusi bilan tashkil etilgan "Milliy parad" loyihasi yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga hurmatni mustahkamlash hamda an'analarimizni keng targ'ib qilishga hissa qo'shdi. Parad davomida 1000 nafardan ortiq talaba-yoshlar milliy liboslarda oliy ta'lim muassasasi hududidan "Afsonalar vodiyi" maskanigacha tantanali yurib, milliy liboslarimizning betakror jozibasini keng jamoatchilikka namoyish etdi. Paradning mantiqiy davomi sifatida "Afsonalar vodiyi" bog'i hududida "Oz begim yoshlari" sayli qizg'in tus oldi.

Bugungi kunda milliy qadriyatlarini yoshlar ongiga singdirish har qachongidan ham muhim, – deydi NamDTU rektori, professor Oybek Ergashev. – Biz bunday tashabbuslar orqali nafaqat tariximizni ulug'laymiz, balki kelajak avlodni yuksak an'analarga sadoqat ruhida tarbiyalashga hissa qo'shamiz. Yigit-qizlarning milliy liboslarimizga mehri, hurmatini ko'rib, kelajagimiz ishonchli qo'llarda ekaniya yana bir bor ishonch hosil qildik.

Ko'p sonli talabalarni yagona maqsad yo'lida jamlagan sayli Yangi Namangan tumani madaniyat bo'limi xonandalari tomonidan ijro etilgan milliylik va yoshlikni ulug'lovchi kuy-qo'shiqlar bilan ishtirokchilarga unutilmas lahzalarni tuhfa qildi.

"Xalq so'zi".



talablar, hujjat topshirish bosqichlari hamda saralash mezonlari batafsil tushuntirildi.

Toshkent viloyatining Nurafshon shahrida iqtidorli yigit-qizlarning startap va innovatsion g'oyalari bag'ishlangan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda yoshlar tomonidan ilgari surilayotgan istiqbolli loyihalarni tinglash, ularni ko'llab-quvvatlash, amaliyotga tatbiq etish hamda tashabbuskor o'g'il-qizlarni rag'batlantirishga e'tibor qaratildi.

Uchrashuvda barcha tuman va shahar hokimlari, bank tizimi vakillari, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari hamda tegishli soha mutasaddilari ham qatnashdi. Ochiq muloqotda viloyatning turli hududlaridan kelgan 50 nafar yosh tashabbuskorning istiqbolli startap loyihalari va innovatsion takliflari taqdim etildi.

Farg'ona shahridagi Ahmad Farg'oni nomidagi madaniyat va ixtiroat bog'ida o'tkazilgan Yoshlar sayli unutilmas taassurotlarga boy bo'ldi. Saylida Farg'ona viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari, texnikumlar va

tomonidan tayyorlangan mahsulotlar hamda ijodiy ishlar ko'rgazmasi ham namoyish etildi. Xiyobon bo'ylab qator rastalarda kitoblar ko'rgazmasi uyushtirildi, milliy qadriyat va an'analarga xos xalqona o'yinlar o'tkazildi. Sportchi yigit-qizlar o'z mahoratlarni namoyon qilib, turli musobaqalarda do'stona bellashdi.

Yoshlar kuni doirasida talabalar, mehnat bozoriga kirib kelayotgan yosh mutaxassislar viloyatdagi mashhur tadbirkorlar bilan yuzma-yuz muloqotini tashkil etish hamda ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlarini uyushtirish ham yaxshilash an'anaga aylantirildi, – deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi Farg'ona viloyati kengashi rahbari Alisher Anvarov. – Bu gal viloyatimizdagi qator oliygohlar talabalari Marg'ilon shahridagi ilg'or tadbirkorlik subyektlari faoliyatini bilan yaqindan tanishdi.

Bunday uchrashuvlar nazariy bilimlar va amaliyotni o'zaro uyg'unlashtirish imkonini beradi. O'z navbatida, bo'lajak mutaxassislar hamda ish beruvchilar o'rtasida

QULAYLIK PUL O'TKAZMALARINING ZAMONAVIY USULI

Markaziy bank turli banklar mijozlarining hisobvaraqlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri pul o'tkazmalarini amalga oshirish imkonini beruvchi "Account-to-Account" (A-A) servisini ishga tushirdi.

Bu haqda Markaziy bank matbuot xizmati ma'lum qildi.

Unga ko'ra, endilikda jismoniy shaxslar mablag'larni bir bank hisobvarag'idan boshqasiga to'g'ridan-to'g'ri o'tkazishi mumkin. Prezidentimizning tegishli farmoni ijrosi doirasida joriy etilgan ushbu yangi tizim raqamli moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish va foydalanuvchilar uchun qulayliklarni oshirishga qaratilgan.

"Account-to-Account" (A-A) tizimi turli banklar mijozlarining hisobvaraqlari o'rtasida bevosita pul o'tkazmalarini ta'minlaydi. Bu usul bank kartasi raqamlari orqali amalga

oshiriladigan an'anaviy "P2P" o'tkazmalaridan farq qiladi. Yangi formatda operatsiyalar to'g'ridan-to'g'ri bank hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi.

Soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, buning uchun alohida karta ochish talab etilmaydi. Mavjud bank ilovasida pul o'tkazish usuli sifatida tanlanadi va xizmat turini belgilash orqali amalga oshiriladi. Hozirda ushbu tizim barcha banklarda texnik jihatdan joriy etilgan.

Shu bilan birga, amaldagi "P2P" pul o'tkazmalari ham saqlanib qoladi.

"Xalq so'zi".

OYDINOYNING OYDIN ORZUSI

Kran boshqaruvi odatda ayollarga xos bo'lmagan kasb, bu erkaklar ishi deyishadi. Bunga jismoniy va texnik salohiyatning o'zi kamil qiladi, ruhiy barqarorlik, diqqat va mas'uliyat ham kerak. Erkaklar orasida ham ko'zi o'tkir, yuragi baquvvat va balandlikdan qo'rqmaydiganlar bu kasbni tanlaydi.

Matonat

Andijonlik Oydinoy Abdulazizova uchun kranchilik kasbi hayotining mazmuniga aylangan. "Doyen Group" MCHJda u har kuni qariyb 60 metr balandlikka ko'tariladi, kranni boshqaradi va har bir

Oydinoyning singillari Shohista va Azizxon ham kranchi. Xolasi Qanoatxon Qo'chqorova esa uzoq yillar kranchilik sohasida mehnat qilib, ko'plab binolar barpo etishga hissa qo'shgan. Ularning barchasi o'z kasbining haqiqiy ustasiga aylangan. Oydinoy Abdulazizovaning



yukni aniq joyiga yetkazadi. Balandlikdagi har bir harakat, mas'uliyat – uning ruhiy va jismoniy barqarorligini sinovdan o'tkazadi. – Bu kasbni tanlashimda ota-onam avval qarshilik ko'rsatishdi, – deydi Oydinoy. – Lekin men ularning fikrini hurmat qilgan holda bo'sh vaqtimda chevarlik va zardo'zlik bilan shug'ullanaman. 7 yoshli qizim bor, magzur ro'zg'or ishlarini o'rgataman.

balandlikdagi har kuni mehnat va tajriba zavqi bilan o'tadi. Andijonda asrlar osha xizmat qiladigan inshootlar barpo etish uning har kunlik orzuniyati. Ayol nafaqat oilada, balki jamiyatda ham eng og'ir va mas'uliyatli kasblarda mehnatni munosib uddalay oladi. Uning faoliyati yoshlar, ayniqsa, qizlar uchun ibrat va ilhom manbaidir.

Saminjon HUSANOV
("Xalq so'zi")

2026-yil avgust-sentabr oyilarida xorijdagi vatandoshlar va o'zbek diasporasi vakillari ishtirokida "Mustaqil O'zbekiston – g'ururim, iftixorim" shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladi.

2026-yil avgust-sentabr oyilarida xorijdagi vatandoshlar va o'zbek diasporasi vakillari ishtirokida "Mustaqil O'zbekiston – g'ururim, iftixorim" shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladi.

MING DARDGA DAVO NE'MAT

Amudaryo tumanidagi Arnabo'yi mahallasida katta tajribaga ega tadbirkorlar ko'p. Ana shunday insonlardan biri – Farhod Bekimbetov butun umrini asalarichilik sohasiga bag'ishlagan. U doimiy daromad manbaini yaratgan holda tibbiy va ekologik toza mahsulotlar bilan bozorni ta'dirimoqda.



Omilkorlik

– Asal – shifobaxsh mahsulot, ming dardga davo, – deydi "Farhod Qo'chqorovich asali" dehqon xo'jaligi rahbari Farhod Bekimbetov. – Yigirma yildan beri shu sohada mehnat qilaman. Kam sonli asalari oilalari bilan ish boshlagandim. Keyinchalik tajriba to'plab, sohani ilmiy va amaliy asosda rivojlantirishga kirishdik va asalarichilikka zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etdik. Natijada xo'jaligim nafaqat tumanimiz, balki Qoraqalpog'iston Respublikasida o'ziga xos obro'-e'tiborga ega bo'ldi.

Ayni paytda Farhod Bekimbetov oila a'zolari va shogirdlari bilan birgalikda 550 ta quti asalari oilasini parvarishlamoqda. Qahramonimiz bu sohada intizom va mas'uliyatni eng muhim omil, deb hisoblaydi. Chunki asalarichilikda kichik e'tiborsizlik ham katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Xo'jalikda asalari parvarishidan tashqari, asalari uylari – quti va ramkalar ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan. Bu esa yangi ish boshlayotgan asalarichilarga juda qo'l kelmoqda.

Bundan tashqari, "Farhod Qo'chqorovich asali" dehqon xo'jaligida asalarichilikda qo'llaniladigan dori-darmonlar, vitaminlar va parvarish vositalari savdosini ham tashkil etilgan. Huddudagi asalarichilar zarur vositalarni uzoqqa bormasdan,

mahallaning o'zida topish imkoniyatiga ega.

Asalarilarni parvarishlashda to'g'ri tanlangan hududlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois dehqon xo'jaligi asalari oilalarining asosiy qismini Qorao'zak, Taxtakopir va Xo'jayli tumanlarida joylashtiradi. Bu hududlarda kunjut, beda, yantoq hamda qizilmiya kabi nektarga boy o'simliklar keng tarqalgan. Bunday tabiiy muhitda yetishtirilgan asal o'zining yuqori sifati va shifobaxsh xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Farhod Bekimbetov har yili ikki marotaba asal yig'adi – har bir qutidan o'rtacha 10 – 15 kilogrammgacha. Bu nafaqat ichki bozor talabini qondirish, balki kelgusida eksporti yo'lga qo'yish imkoniyatini ham yaratadi.

Asalarichilik faqat asal yetishtirish bilan cheklanib qolmaydi. Bu soha mum, propolis, gulchang, asalari suti kabi qimmatli, shifobaxsh va eksportbo mahsulotlarni o'z ichiga olgan katta iqtisodiy salohiyatga ega. Shu ma'noda, Arnabo'yi mahallasini asalarichilik an'analari va tajribasi shakllangan maskan, deydish mumkin. Bu yerdagi tadbirkorlar Farhod Bekimbetov kabi tabiiy muhitni qadrlab, uni kasb va mehnat manbaiga aylantirishdek ulkan vazifani uddalayotgani tahsinga sazovor.

G'ayrat OTAJONOV
("Xalq so'zi")

AYOL MANFAATI – JAMIYAT MANFAATI

Jadidchilik harakatining ulug' namoyandasi Fitrat o'zining "Oila" asarida: "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi", deb yozgan edi. Shu jihatdan, joriy yilning 3-mart kuni Prezidentimiz tomonidan "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'rovonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi Farmonning imzolaniishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur hujjat jamiyatimizda ayollar va bolalarga bo'lgan munosabatni yangi bosqichga olib chiqadi.

Fikr

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir", deb qayd etilgan. Darhaqiqat, mamlakatimizda olib borilayotgan keng miqyosli islohotlarning pirovard maqsadlaridan biri oila, uning tinchligi, farovonligi va baxtu saodatini ta'minlash bo'lib qolmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga binoan, jamiyatda xotin-qizlarga va bolalarga tazyiq hamda zo'rovonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan amaliy ishlar keng qamrovli tus olib, bu jarayon yanada jadal sur'atda davom ettirilmoqda.

Dunyo miqyosida global muammolardan biri bo'lib kelayotgan oilaviy zo'rovonlik masalasiga xalqaro hamjamiyatning alohida e'tiboriga qaramasdan, oilalarda bunday salbiy holatlarining kamaymayotgani mazkur holatning chuqur tadqiq etilishi talab

bolalar, qarindoshlar o'rtasida ham uchraydi. Ayniqsa, ayollar, bolalar va keksalar zo'rovonlikka ko'proq duchor bo'ladigan ijtimoiy guruh hisoblanadi.

Shu o'rinda oilaviy zo'rovonlik va gender zo'rovonlik o'rtasidagi farqni ham aytib o'tish maqsadga muvofiq. Oilaviy zo'rovonlik oila yoki yaqinlar o'rtasidagi maishiy munosabatlar doirasida yuz beradi. Gender zo'rovonlik esa shaxsning nisbatan uning jinsi (ayol yoki erkak ekanini) sababli sodir etilgan zo'rovonlikdir. Gender zo'rovonlik oilada, ish joyida, jamoat joylarida, ta'lim muassasalarida, internetda ham sodir bo'lishi mumkin. Bu tushuncha keng qamrovga ega bo'lib, oilaviy munosabatlar bilan cheklanmaydi.

Oilaviy zo'rovonlik turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Xususan, shaxsni uning xohish-irodasiga qarshi ravishda qidirish, u bilan og'zaki va telekommunikatsiya tarmoqlari vositasida, jumladan, internet orqali muloqotga kirishish, ish, o'qish va (yoki) yashash joyiga borish bilan unda o'z xavfsizligi uchun xavotirlanish kayfiyatini qo'zg'atish ham zo'rovonlik sifatida baholalanadi.

Mamlakatimizda oilalardagi ma'naviy-xalqoiy muhitni yanada yaxshilash, ularning farovonlik darajasini ko'tarish, shuningdek, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini oshirish maqsadida 2025-yil 9-aprelda "Oila va xotin-qizlarni ko'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim

qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonun imzolandi.

Mazkur qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 40-moddasi 4-qism bilan o'ldirilib, unga muvofiq nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilayotganda sud oilaviy (maishiy) zo'rovonlikdan jabrlangan shaxsning talabiga ko'ra yarashish uchun muhlat tayinlanmasligi belgilandi.

Bu norma jabrlanuvchini himoya qilish, uni qayta zo'rovonlik xavfiga duchor etmaslik va ishlarni tezroq hal qilish maqsadida joriy etilgan. Mazkur qoidaga ko'ra, oilaviy zo'rovonlik holatlarida jabrlanuvchining xohishi bilan yarashish muddati ko'zdan tashlanmaydi. Buning asosiy maqsadi oilaviy zo'rovonlik sodir qilgan shaxs bilan jabrlanuvchini majburiy yarashishga yo'l qo'ymaslikdir.

Endi agar nikohdan ajrashishni talab qilayotgan shaxs oilaviy (maishiy) zo'rovonlik qurboni bo'lsa, sud uning xohishiga ko'ra

yarashish muddatini belgilamaydi, bu o'z navbatida, jabrlangan shaxsni nikohdan ajratish ishini osonlashtiradi va talabgorning qayta zo'rovonlikka duch kelish ehtimolini kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining nikohdan ajratishga oid ish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risidagi qarorlariga ham o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra, sud er va xotinining yoki ularidan birining arizasiga ko'ra, yarashish uchun berilgan muhlatni jiddiy asoslar mavjud bo'lgan hollarda qisqartirishga va ishni bu muhlat tugagunga qadar ko'rishga haqli. Agar arizada shaxsning oilaviy (maishiy) zo'rovonlikdan jabrlanganligi asos sifatida ko'rsatilib, bu haqda sud hujjati taqdim etilsa, sud yarashish uchun berilgan muhlatni qisqartiradi va ishni ko'rishga tayinlaydi.

Ayollar manfaatlarini ta'minlash, ularni turli tazyiq va zo'rovonliklardan himoya qilish, jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Davlatimiz rahbarining Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida imzolagan farmoni ham yo'nalishdagi islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, u inson manfaatlarini ulug'lash va yuksaltirishdek muhim maqsadlarni o'zida mujassam qilgan. Bunday euzu maqsad va vazifalarni bajarish jamiyatning barcha a'zolaridan yakdillik hamda fidoyilikni talab etadi. Zero, faqat sog'lom, o'zaro hurmatga asoslangan oila orqaligina barqaror va taraqqiy topgan jamiyatni barpo qilish mumkin.

Ilhom NASRIYEV,
O'zbekiston Odil sudlov akademiyasi kafedra mudiri,
yuridik fanlar doktori, professor.

